



## O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

**Ubaydullayev Mirjalol Baxodir o'g'li**

*Pedagogik innovatsiyalar instituti tayanch doktoranti*

Inson o'zi yashab turgan jamiyat taraqqiyoti va o'z ehtiyoji farovonligi yo'lida faoliyat yuritar ekan, jamiyat va tabiat qonunlarini chuqur bilishi, ulardan oqilona foydalanish, hamda tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni muvofiqlashtirib turishi lozim. Shundagina ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarimiz ko'z qorachig'iday asraladi, o'lkamiz tabiati barqaror bo'lib kelajak avlodlar uchun saqlanadi.

Jahonning barcha mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo'lmoqda. Endilikda respublikamizda chiqindisiz, kam chiqitli va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish, ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy-huquqiy choralar ko'rish, ekologik ma'rifat orqali aholining ekologik tafakkurini rivojlantirish, xalqaro ekologik munosabatlarni yo'lga qo'yish, tabiatga, atrof-muhitga ko'rsatilayotgan salbiy antropogen ta'sirlarni kamaytirishga, insonning atrof-muhitga sifat jihatidan yangicha munosabatini shakllantirishga olib kelmoqda.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturda ham "inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi"ga, "ta'lim oluvchilarning ... ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish"ga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois umumiy o'rta ta'lim bilan birgalikda hozirgi kunda mamlakatimizda juda katta kontingentni o'z ichiga qamrab olayotgan yangi professional ta'lim tizimi, xususan, boshlang'ich professional ta'lim muassasalari o'quvchilariga qo'yilgan umumiy talablarda ham ularning ekologik mas'uliyatni his qilishi, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi lozimligi alohida ko'rsatib o'tilmoqda.

Vatanimiz tabiatiga, atrof-muhitiga nisbatan hurmat, ehtiyotkorona munosabat va unga mas'uliyat bilan qarash hissini boshlang'ich darajadagi har bir o'quvchi shaxsida tarbiyalashimiz lozim. Zero, yurtimizning go'zal tabiati, uning kelgusi holati aynan ularning atrof-muhitga bo'lgan munosabati orqali belgilanadi. Shu bois pedagog olimlar va amaliyotchilar ekologik ta'lim va tarbiyani ta'lim darajalarining har bir bosqichida o'rgatish maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.



Tabiatga xunuk oqibatlarini oldindan o'ylamay, bilmasdan ziyon-zahmat yetkazgan, bilmasdan zarar keltirgan kishi o'z hatti-harakati bilan xato ish qilib qo'yganligini payqagach, zimmasidagi mas'uliyatni his etib, o'zini to'g'ri yo'lga soladi. Tabiatga ziyon yetkazayotganini bila turib, o'z hatti-harakatini to'xtatmasdan ongli ravishda davom ettiradigan odamni esa bu ishdan qaytarish juda mushkul. Noo'rin hatti-harakatlarning guvohi bo'lib turganlar esa bunga reaksiya bildirmay, qat'iyatsizlik namoyon qilib, o'zlarini chetga oladilar. Atrof-muhitga bilmasdan zarar yetkazgan odam uchun ekologik ta'lim zarur bo'lsa, o'zi keltirayotgan zararni bilsa ham, yo'lidan qaytmaydigan mas'uliyatsiz odamga ekologik ta'limgina emas, balki tarbiya ham lozim. Chunki birinchisi ongga bog'liq bo'lsa, ikkinchisi axloqqa borib taqaladi.

Inson ongi va tafakkurini, axloqiy va madaniy saviyasini ijtimoiy ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirish, shu maqsadda ekologiya, ekologik ta'lim va tarbiyaning yaxlit tizimini yaratish va amaliyotga joriy etish zaruriyati mamlakat oldida turgan ulkan vazifa sanaladi.

Biroq mazkur tadqiqotlarda boshlang'ich professional ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat asoslarini shakllantirish muammosi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan maxsus o'rganilmagan. Ushbu muammo asosan umumiy o'rta ta'lim turi bilan bog'liq ravishda bir qator tadqiqotchi olimlar tomonidan qisman tadqiq etilgan. Shu sababli boshlang'ich professional ta'lim tizimi o'quvchilari uchun o'ziga mos va xos ta'lim mazmuni va metodikasi ishlab chiqilishi zarurligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir.

Respublikamizda boshlang'ich professional ta'lim darajasidagi o'quvchilarda atrof-muhitga, ekologiyaga mas'uliyatli munosabat bo'lish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish muammosi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishi bajarilmagan. Tarbiya nazariyasi va metodikasida mazkur ilmiy yo'nalish birmuncha ishlab chiqilgan bo'lsa ham, aksariyat o'qituvchilar o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish tizimining maqsadi, vazifalari, prinsiplari, mazmuni, shakl va usullari to'g'risida tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega emasliklari oqibatida qarab chiqilayotgan muammo pedagogik amaliyotda juda sekinlik bilan hal etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilar faoliyatida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat asoslari yetarli darajada shakllanmasligiga olib kelmoqda.

Shunday qilib, boshlang'ich professional ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni samarali amalga oshirish, o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyatli



munosabat asoslarini shakllantirish pedagogika fani va amaliyotidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylangan.

Shu sababli bugungi kunda professional ta'lim tizimi o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish taklif qilinadi:

- o'quvchilarni atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida ijtimoiy ekologik axloq qoidalariga mos keluvchi va uning holati uchun fuqarolik mas'ulligini ta'minlovchi ekologik bilimlar, qarash va e'tiqodlar asoslarini shakllantirish.

- o'quvchi-yoshlarning jismoniy salomatligini muhofaza qilish, ularning barqaror ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash;

- professional ta'lim tizimida ekologik ta'limni shakllantirish, ilg'or tajribalarga asoslangan holda ekologik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirishning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish.